

WE ARE YOUR DOL



Department  
of Labor

A proud partner of the American Job Center network

# NYU-YORK SHTATI KARYERA MARKAZLARI

## XARAJATSIZ qulay ish qidirish xizmati

### KARYERA BO'YICHA MASLAHAT VA REZYUMI TAYYORLASHGA YORDAM

Bizning maslahatchilarimiz sizning ehtiyojlariningizni, ko'nikmalariningizni va qiziqishlariningizni baholashda yordam beradi. Ular sizga ish qidirishda yordam berish uchun bosqichma-bosqich jarayon orqali sizga yo'l-yo'rqi ko'rsatadilar. Mutaxassis xodimlar sizga natijaga erishadigan rezyumeni yozish va loyihalashtirishda yordam beradi. Biz sizga rezyumeni qanday moslashtirishni va Internetda o'z mahoratingizni qanday sotishni ko'rsatamiz.

### VIRTUAL SEMINARLAR

Siz har kuni jonli taqdimotchilar bilan virtual seminarlarda qatnashishingiz mumkin:

- Ish izlash strategiyalari
- Tarmoqqa ularish
- Ish haqi bo'yicha muzokaralar
- Ish yo'qotishlarini boshqarish
- Rezyume tayyorlash
- Intervyu ko'nikmalari

### RESURS XONALAR

Bizning Karyera markazlarimiz kompyuterlar, telefonlar, printerlar, nusxa ko'chirish va fakslardan bepul foydalanish imkoniyatini beradi.

### ISH QIDIRISH RESURSLARI, TADBIRLAR VA ISHGA YOLLASH

Nyu-York shtatidagi korxonalar Mehnat Departamentida ish o'rinnari ro'yxatini taqdim etadilar. Siz quyidagi manzilga tashrif buyurib, ish o'rinnari kengashlari va onlayn ish o'rinnari bilan tanishishingiz mumkin: [myjobsny.usnlx.com/](http://myjobsny.usnlx.com/)

Joylashtirish bo'yicha mutaxassislar sizga maqsadli ish qidirishda ham yordam berishi mumkin. Ko'pgina korxonalar bizning markazlarimizdan ishga yollash va joyida suhbatlar o'tkazish uchun foydalanadilar [statistics.labor.ny.gov/career-zone/career-calendar.shtml](http://statistics.labor.ny.gov/career-zone/career-calendar.shtml)

### VIRTUAL KARYERA MARKAZI

Virtual Karyera Markazi (VKM), Nyu-York shtatidagi birinchi onlayn ish qidirish sayti, odamlarga keyingi martabalarini topishga yordam berish uchun yaratilgan. Ilg'or sun'iy intellekt orqali ish izlovlchilar o'zlarining ko'nikmalari va tajribalarini Nyu-Yorkdagi biznesda mayjud bo'lgan imkoniyatlarga moslashtirishlari mumkin. [dol.ny.gov/virtual-career-center-ind](http://dol.ny.gov/virtual-career-center-ind)

### KATTALAR UCHUN ASOSIY TA'LIM/ INGLIZ TILI IKKINCHI TIL SIFATIDA

Biz sizga o'rta maktab ekvivalenti diplomini qo'lga kiritish yoki ingliz tilini o'rganish malakangizni oshirish uchun bepul kurslarga yo'llanma berishimiz mumkin.

### COURSERA

Nyu-York Davlat Mehnat Departamenti yetakchi onlayn ta'lim markazi Coursera bilan hamkorlik qiladi. Coursera orqali ishsiz Nyu-Yorkliklar yuqori o'sish sur'atlari bo'ylab 4000 ga yaqin dasturlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar va ma'lumotlar fanlari, biznes va texnologiya bo'yicha ko'nikmalarni oshirishlari mumkin. Ushbu dasturlarning aksariyati sertifikatlash yo'llari bo'lib, sizning martabangizni oshirishga yordam beradi.

### KASB-HUNAR SINFI VA ISH JOYIDA TA'LIM (MALAKALI BO'LGANLAR UCHUN)

Biz sizni uzoq muddatli martaba uchun qisqa muddatli treningga yuborishimiz mumkin. *Moliyalashtirish mavjudligiga va dastur talablariga asosan*

### TURAR-JOY VA MOSLASHUVCHAN TEXNOLOGIYA

Agar sizda nogironlik bo'lsa va Karyera Markazida taqdim etilayotgan xizmatlardan to'liq foya olish uchun turar joy yoki yordam kerak bo'lsa, iltimos, bizning xodimlarimizga xabar bering. Bizda resurslarga kirishda yordam beradigan moslashtirilgan texnologiya mavjud, jumladan: ekranni o'qish moslamalari, lupalar, matnni nutqqa o'tkazish dasturi, TTY matnli telefon, trekbol va katta hajmi klaviaturalar.

### RAQAMLI SAVODXONLIK

Raqamli savodxonlik ko'nikmalari ish qidirish, olish va saqlab qolish uchun zarur

Bizning Karyera markazlarimiz NorthStar raqamli savodxonlikni baholash va treninglarni taklif qiladi

**Muhim Kompyuter Ko'nikmalari** – Asosiy kompyuter ko'nikmalari; Internet Asoslar; Elektron pochtadan foydalanish; Windows; Mac OS

**Muhim Dasturiy Ko'nikmalar** - Microsoft Word; Microsoft Excel; Microsoft PowerPoint; Google Docs

**Kundalik hayotda texnologiyadan foydalanish** - Ijtimoiy tarmoqlar; Axborot savodxonligi; Karyera qidirish ko'nikmalari; Raqamli Iz

### KARYERA MARKAZINGIZNI TOPING

[www.labor.ny.gov/career-center-locator](http://www.labor.ny.gov/career-center-locator)